

GENDER TUSHUNCHASI VA UNING ASOSIY MOHIYATI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-20-714-717>

Hamdamova Sevaraxon Oybek qizi

Farg`ona Politexnika instituti,

Tillarni o`rgatish kafedrası stajer-tadqiqotchisi, assistent

E-mail: seva.hamdamova.92@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada gender tushunchasi mohiyati, gender va jins tushunchalariga berilgan ta`riflar, dunyo va o`zbek olimlarining gender bilan bo`g`liq tadqiqotlari, genderning hozirgi kundagi ahamiyati, gender-neytral til va uning muhimligi kabi masalalarga to`xtalib o`tilgan.

Kalit so`zlar: *gender, jins, genderologiya, gender-neytral til, gender terminlar, grammatik gender, gender bo`yoqdorlik, gender tenglik.*

THE CONCEPT OF GENDER AND ITS ESSENCE

ABSTRACT

This article focuses on the essence of the concept of gender, definitions of gender and gender, research of the world and Uzbek scientists on gender, the current importance of gender, gender-neutral language and its importance.

Keywords: *gender, sex, genealogy, gender-neutral language, gender terms, grammatical gender, gender coloring, gender equality.*

Hozirgi kunda davlatlar rivojlanishida alohida e`tiborga molik bir qator masalalar sirasiga jamiyat, davlat, ta`lim, oila tuzilmalarida gender tenglikni ta`minlash masalalariga alohida e`tibor berilmoqda. Shunday ekan, gender rivojlanishda muhim ahamiyatga ega tushuncha sifatida o`rganilishi lozim.

Ilm-fan, tadqiqotlar maydoniga gender tushunchasi o`tgan asrning 70-yillarida kirib keldi. Bu davrga kelib feminist olimlar tomonidan turli qarashlar, g`oyalar ilgari surila boshlandi.

Gender tushunchasi, uning shakllanishi, o`rganilishi fanlararo bog`liqlik asosida tadqiq etishni talb qilgani asnosida, ushbu tushunchanini barcha fan sohalari nuqtai nazardan tadqiq etish kerakligini taqozo etadi. O`z davrida turli fan vakillari qatorida tilshunoslar ham ushbu masalaga alohida e`tibor bilan yondashib kelishgan. Bunday

olimlar qatoriga V.Fon.Gumbold, A.A.Potebnya, Dj.Lakoff, T.A. van Deyk, L.Push, E.S.Kubryikova, V.A.Maslova, Yu.S.Stepanov, A.Vejbitskaya, A.V.Kirilina, I.Zikova, D.V.Semenova kabi olimlarni kirgizishimiz mumkin. Ular gender tushunchasini kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va gender tilshunosligiga doir asarlarida turlicha tadqiq qilishgan.

O`zbek tilshunos olimlaridan esa Sh.Rahmatullayev, A.E.Mamatov, B.Yo`ldoshev, P.U.Bakirov, M.K.Xoliqova, A.R.Ismailov, G.S.Xakimova, K.D.To`xtayeva, B.M.Jo`rayev, N.Z.Nasrullayeva, N.D.Sagindikova, I.M.To`xtasinov, G.Ergasheva, U.S.Yigitaliyeva, Sh.K.Gulyamova, K.R.Aliyeva va boshqalar gender masalalarini turli aspektlar jihatidan tadqiq etishgan.

Xususan, o`zbek tilshunosligida frazeologizmlarni qiyosiy jihatdan leksik, semantic sathlarda tadqiq etish, ularning kognitiv, pragmatik va stilistik xususiyatlarini o`rganish borasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Fanlararo bog`liqligi jihatidan gender tushunchasi o`zbek olimlari tomonidan keng o`rganilgan. Masalan, K.R.Aliyeva “O`zbekiston Respublikasida gender tengligini ta`minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari” nomli ilmiy ishida ushbu tushunchaning yurtimizdagi konstitutsiyaviy jihatdan qay tarzda shakllanganligini va davlatimiz qonunchiligida belgilangan tartibdagi ijrosini o`rganish masalalari olib chiqilgan. G.Ergasheva esa turli tillar tizimida gender terminologiyasining shakllanishidagi lingvistik va ekstralingvistik omillar nuqtai nazardan o`rganib, tadqiqotlar olib borgan. I.M.To`xtasinov Badiiy matnlardagi sleng so`zlarning lingvomadaniy va gender xususiyatlari ingliz va o`zbek tili materiallari asosida tadqiq etgan.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, gender juda keng va ko`p qirrali, tadqiq maydoni cheksiz tushunchadir.

Umumiy qilib olganda tilda “Jins” va “Gender” tushunchalari o`zaro sinonim sifatida bir-birining o`rnida qo`llanib kelingan. Lekin ushbu tushunchalar bir-biri bilan Gender tushunchasiga turli olimlar, tilshunoslar turlicha ta`rif berib kelishgan. Misol uchun Macmillan Advanced lug`atida “Gender” va “Jins” tushunchalariga quyidagicha ta`rif berilgan:

Gender	<i>N</i> -formallik jihatidan erkak yoki ayol bo`lish
	<i>N</i> -barcha erkaklar/barcha ayollar guruhiga kiruvchilar nazarda tutilganda
	<i>N</i> -so`zning ma`lum bir genderga ya`ni maskulin, femin yoki neytral genderiga mansubligidir. Ingliz tilida faqatgina “he” va “she”

	olmoshlarida hamda “his” va “her” egalik aniqlovchilaridagina gender xoslik mavjud.
--	---

Jins	N-Insonlarni ma`lum ayollar va erkaklar guruhlariga ajratuvchi birlik
	N-insonlar va hayvonlarni ikki guruhga bo`luvchi xususiyatlar va jihatlar

Ko`rinib turibdiki, lug`atlarda ham berilayotgan ta`riflar bir-biriga o`ta yaqin va bir qarashda kishida ular sinonim degan fikrni uyg`otishi tabiiy xol. Lekin tilshunoslikda gender hamda jins terminlari alohida tushunchalar sifatida o`rganiladi. Shuning natijasida Genderologiya fani vujudga kelgan va gender bilan bog`liq barcha masalarni o`rgatish bilan shug`ullanadi.

Tilshunoslikda gender tushunchasiga har xil munosabat bildirilgan. Bevosita xorijiy tillarni o`rgatish va o`rganishda ham ushbu jihatlar dolzarb bo`lib qolmoqda. Buning asosiy sababi esa Grammatik gender tushunchasining o`zbek tili grammatikasida mavjud emasligidir. Chunki til o`rganuvchilarga xorijiy tillar grammatikasini qiyoslab o`rgatish ancha samarador va tushunarli usul hisoblanadi. Lekin grammatik gender tushunchasini o`rgatishimiz uchun esa o`zbek tili grammatikasida bunday birlik yoki kategoriya mavjud emas. Shunday ekan bu borada til o`rganuvchilarga batafsil tushuncha berish muhimdir.

Bundan tashqari so`nggi yillarda dunyo hamjamiyati gender tengligi kabi masalarni dolzarb deb bilib, bu borada alohida siyosiy, ijtimoiy, ilmiy tajribalar, qonunlar, o`zgarishlar amalga oshirmoqda. Yaqqol misol qilib esa dunyo minbarlarida Gender-neytral til degan tushunchaning vujudga kelishi va aynan shu tildan foydalangan holda muloqot olib borishni talab sifatida qo`yilayotganini keltirishimiz mumkin. Xo`sh, gender-neytral til o`zi nima?

Gender-neytral til- bu bevosita kishining gender mansubligini ko`rsatmaydigan, u yoki bu jins vakillarini taxqirlamaydigan va alohida olib ta`kidlab, ko`rsatib o`tmaydigan, gender bo`yoqdorlikdan holi bo`lgan tildir. Gender-neytral til termini bilan birga tilshunoslikka umuman tilning barcha sathlariga gender-neytral terminlar, atamalar va so`zlar kirib keldi va mavjudlari alohida kategoriyalarga ajratildi.

Xorijiy tillarni o`rganar ekanmiz bevosita o`rganilayotgan til madaniyati, davlati hamda ijtimoiy o`zgarishlari, qarashlari, normalari bilan birgalikda bizning kundalik hayotimizga biz istagan va istamagan holatda kirib kelishiga guvoh bo`lamiz.

Shunday ekan, gender-neytral til. Gender terminlarini o`rganish ham davr talabi bo`lib qolmoqda. Zero, mamlakatimizda ham gender tenglik masalalariga alohida e`tibor qaratilmoqda. Bu borada mahalla, oila institutlari qatorida ta`lim, xalq ta`limi, oliy ta`lim muassasalarining ham o`rni beqiyosdir.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlab o`tish joizki, gender tenglikka qachon erishiladi? Qachonki, gender, gender tenglik, gender terminlari kabi tushunchalar yoshlar, nafaqat yoshlar balki jamiyatning har bir a`zosiga to`g`ri va t`oliq holda tushuntirilgandagina singdirilgandagina erishish mumkin. Chunki bu davr, zamon talabi. Zamon bilan hamnafas yashash esa yurtimiz kelajagi uchun befarq emasligimizni namoyon qiluvchi ko`rsatkichdir.

REFERENCES

1. M.To`xtasinov “Badiiy matnlardagi sleng so`zlarning lingvomadaniy va gender xususiyatlari ingliz va o`zbek tili materiallari asosida” dissertatsiya PhD. Toshkent 2011.
2. Ergasheva G. “Turli tillar tizimida gender terminologiyasining shakllanishidagi lingvistik va ekstralingvistik omillar” dissertatsiya DS, Toshkent 2018.
3. “The role of gender and language learning strategies in learning English” Oktay Aslan; Turkiya 2009.
4. Macmillan Advanced dictionary, Oxford 2007.
5. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10
6. Nasirova, S. A. (2020). CONCEPTS OF 中国 梦想" CHINESE DREAM" AND 类 命运 共同" COMMUNITY OF THE ONE FATE OF HUMANITY"—A LINGUISTIC AREA. *Journal of Central Asian Social Studies*, 1(01), 05-14.
7. Abdullaevna, N. S. (2020). Lexical-semantic and cognitive specifics of political discourse (based on Si Jinping's speeches). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1086-1092.
8. Nasirova, S. A., Hashimova, S. A., & Rikhsieva, G. S. (2021). THE INFLUENCE OF THE POLITICAL SYSTEM OF CHINA ON THE FORMATION OF SOCIAL AND POLITICAL TERMINOLOGY. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 10-17.
9. <https://www.natlib.uz/>
10. <https://gsdrc.org/topic-guides/gender/understanding-gender/>